

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA FANLARARO BOG'LANISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI

*Zaxidov Ibroximjon Obidjonovich*

*Namangan davlat universiteti Fizika kafedrası dotsenti, p.f.n.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish va uning ahamiyatini tadqiq qilishga bag'ishlanadi. Fanlararo bog'lanish ta'lim mazmunini boyitishga, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada fanlararo yondashuvning metodologiyasi, uning o'quv jarayoniga ta'siri va o'quvchilarda kompleks tafakkurni shakllantirishdagi o'rni va ushbu yo'nalishdagi pedagogik samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan tavsiyalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** fanlararo bog'lanish, aniq va tabiiy fanlar, o'rta ta'lim, integratsiyalangan ta'lim, metodologiya, o'quv jarayoni, o'qitish usullari, kompleks fikrlash.

Bugungi kun ta'lim tizimida fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Fanlararo yondashuv yordamida o'quvchilar ma'lumotni tizimli, kompleks tarzda o'zlashtirishlari va turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishlari mumkin. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq va tabiiy fanlar o'rtasida bog'lanishni amalga oshirish o'quvchilarning turli mavzularni yaxlit ko'rishlari, qiyin muammolarni tahlil qilish va bir necha fan nuqtai nazaridan yondashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu yondashuv o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini ham oshirishga xizmat qiladi.

Fanlararo bog'lanish ta'lim tizimida 20-asrning oxiridan boshlab alohida urg'u berilgan muhim metodologik yondashuv sifatida rivojlandi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, fanlararo bog'lanish ta'lim mazmunini boyitish bilan bir qatorda o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Masalan, fanlararo munosabatlar va integratsiyalangan ta'limning o'quvchilarda kognitiv tafakkurni, o'quv jarayonini yangi bilimlar bilan boyitishga va o'quvchilarning bilim sifatini oshirishga xizmat qiladi [1. B. 78].

Barcha maktab fanlari o'ziga xos integratsiya potentsialiga ega, ammo ularning birlasha olish qobiliyati, integratsiyaning samaradorligi fanlararo bog'lanishli dars yoki kursni rejalashtirishda hisobga olinishi kerak bo'lgan ko'plab shartlarga bog'liq. Avvalo, ma'lum bir sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi tahlil qilinadi. Ularning o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklar fanlararo bog'lanish usulini qo'llashning sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Ba'zan maktab o'quvchilarining bir fanni muvaffaqiyatli o'rganishi boshqasida ma'lum bilim va ko'nikmalarining mavjudligiga bog'liq.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Adabiyotlar tahlili - fanlararo bog‘lanish bo‘yicha turli ilmiy manbalar o‘rganildi va tahlil qilindi.

2. Sohaviy kuzatuvlar - o‘rta maktablardagi dars jarayonida aniq va tabiiy fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar qay darajada amalga oshirilayotgani kuzatildi.

3. Savolnoma va intervyular - o‘qituvchilar bilan savolnoma va intervyular o‘tkazilib, fanlararo bog‘lanishni amalga oshirishga bo‘lgan yondashuvlar o‘rganildi.

4. Tajriba-sinov ishlari - tanlangan sinflarda fanlararo bog‘lanishlarni o‘z ichiga olgan darslar o‘tkazildi va natijalar baholandi.

Tadqiqot jarayonida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirishning bir qator ijobiy natijalari aniqlandi:

bilimlarni yaxlitlash - fanlararo yondashuv o‘quvchilarga ma‘lumotlarni yaxlit tarzda qabul qilishga yordam berdi;

tanqidiy tafakkur rivoji - bir nechta fanlar doirasida o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari shakllandi.

amaliyotdagi qo‘llanish - o‘quvchilar voqealarni bir necha fan nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali hayotiy muammolarni samarali hal qilish ko‘nikmasini rivojlantirdilar;

o‘quv jarayoniga qiziqish - fanlararo bog‘lanishlar orqali yangi mavzularni o‘rganish o‘quvchilarda qiziqish va ijobiy munosabat shakllantirdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, fanlararo bog‘lanishlar ta‘lim jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi. O‘quvchilar bir fanning o‘zigagina emas, balki turli fanlarning turli jihatlariga qiziqish bildirdilar va o‘zlarining shaxsiy tajribalarida ularni qo‘llashni istadilar. Ushbu yondashuv ta‘lim mazmunini bir qancha amaliy yondoshuvlar bilan boyitishi, shuningdek, o‘quvchilarda chuqur bilim va kompleks tafakkurni rivojlantirishi ta‘kidlandi.

Aniq va tabiiy fanlar o‘rtasidagi fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘quvchilarning fanlararo munosabatlar to‘g‘risidagi tushunchalarini kengaytiradi, kompleks fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda dars jarayonidagi qiziqishni kuchaytiradi [2-5]. Shuning uchun, fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish uchun ta‘limda maxsus metodlar, zamonaviy texnologiyalar va qo‘shimcha o‘quv manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jacobs, H. H. *Interdisciplinary Curriculum: Design and Implementation*. Alexandria, VA: ASCD. 2007.

2. Alijanov D., Zaxidov I. Таълимда фанлараро боғланишларнинг функциялари // *Science and innovation*. – 2022. – Т. 1. – №. В7. – С. 1406-1411.

3. Obidjonovich Z. I., A‘Zamjon A. D. 6-sinf fizika fanida tovush hodisalarini o‘qitish orqali ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 424-432.

4. Захидов И. О. и др. Важные аспекты преподавания физики в 6 классе на основе междисциплинарных связей //Учёный XXI Века. – 2022. – С. 80-83.

5. Алижанов Д. А. Ў., Захидов И. О. Фанлараро алоқаларнинг тарихий ривожланиш босқичлари //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В4. – С. 22-29.